

"Maktab o'quvchilarida vatanparvarlik ruhini yanada oshirish"

Qashqadaryo Viloyati Koson tuman

8-maktabning tarix fani o'qituvchisi

To'ychiyeva Zarnigor Sobir qizi

Annotatsiya: Keyingi yillarda mamlakatimizda yoshlarni harbiy-texnik mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash, ma'nan yetuk va jismonan sog'lom shaxsni kamol toptirish sohasida muayyan ishlar amalga oshirildi, sport, shu jumladan, uning texnik va amaliy turlari bilan shug'ullanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. Maqolada yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiylashda sinfdan tashqari ishlar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, kitob va risolalar, armiya, harbiy, konstitutsiya, maqsad, vazifa.

Yosh avlodimizda qat'iy hayotiy pozitsiya va vatanimiz taqdiri uchun yuksak mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish alohida muhim ahamiyatga ega. Shuni hisobga olib, mamlakatimizda o'rta maktabdan boshlab oliy o'quv yurtlarigacha qamrab oladigan uzluksiz harbiy ta'lim va vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha o'ziga xos noyob va yaxlit tizim yaratilmoqda deb ta'kidlagan edi prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev. Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarning harbiy bilim salohiyatining pastligi, harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyaning yetarli darajada emasligi, mazkur holatlarni oldini olish chora tadbirlarining talab darajasida olib borilmayotkanligi sir emas. Bunday holatlarning yuzaga kelishiga sabab shuki, davlat va nodavlat tashkilotlari, ta'lim muassasalari va keng jamoatchilik ta'sirining kamligidir. Davlat hokimiyati organlari va qurolli kuchlarining ta'lim muassasasi bilan hamkorlikni yo`lga qo'yish bu muammolarni yechishimizga yordam beradi.

Mustaqillikga erishganimizdan keyin harbiy-vatanparvarlik ruhini tarbiyalash borasida ko`pgina ishlar qilindi. Jumladan, ommabop kitob va

risolalar, ilmiy va o`quv uslubiy qo`llanmalar chop etildi. R.Y.Qurbanovning «Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy g`oyaning o`rni», Kalkanov E.T. —Vatanparvarlik shakllanishi va amal qilishining bo`g`liqlik qonuniyatlari (ijtimoiyfalsafiy tahlil) mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyalari, S.Astanova, I.Y.Inoyatov, M.X.Abilovning izlanishlari ham ilmiy e`tiborga molikdir. Bu kitob, risola vadissertatsiyalarda asosiy e`tibor vatanparvarlikning mazmun-mohiyatiga, hozirgi kunda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalariga qaratilgan. Ammo sohaga oid metodologik masalalar, xususan, o`quvchi-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash shu vaqtga qadar alohida dolzarb mavzu sifatida o`rganilmagan.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining barcha shakllari bitta maqsadga yo`naltirilgan bo`lib, yoshlarni vatanga muhabbat, armiyaga xizmat qilish burchi va vatan himoyasiga doim tayyor turishdan iboratdir. Vatanparvarlik ruhini tarbiyalashda badiiy kitob va adabiyotlar, kino, teatrlar hamda tasviriy san‘atning o`rni katta. Ushbu manbalarda keltirilgan qahramonlar kim va ularni nima uchun buyuk deymiz. Vatanimiz uchun ular nimalar qilganlar, bularni biz manbalar bilan tanishib oqanimizdagina bilishimiz mumkin.

Bolalar bilan mакtab tarbiyaviy ishlarining shakliga nisbatan erkin faoliyat asosida tashkil etishning aniq usuli, kattalar uchun pedagogik jihatdan mos keladigan rahbarlik bilan belgilanishi mumkin. Ta'lim amaliyotida mehnatning xilma-xil shakllari mavjud, ularni tasniflash bir oz qiyin. Shu bilan birga, biz tarbiyaviy ishning ustunligini va asosiy tarkibiy qismini ta'kidlab, tarbiyaviy ish shakllarini soddalashtirishga harakat qilamiz. Maktab o`quvchilarida vatanparvarlik asoslarini o`rgatishda o`qituvchilar turli metod va usullardan foydalanadilar. Ammo tarbiyaviy ahamiyatning ta'lim shakli bu o`yin texnologiyasidir . Yosh o`quvchilar o`yinlari oddiygina xatti-harakatlarning ijtimoiy shaklini taqlid qilishga qaratilgan. Bir tomonidan, bolaning biologik tabiatи butunlay o`yinda namoyon bo'ladi, boshqa tomonidan-ijtimoiy moslashishga tayyorlik kuzatiladi. O`yinda kattalar hayotidan xulq-atvor normalari o`qitiladi, qadriyatlar ishlab chiqiladi. Tarbiyalash usullarini qo'llashda

"tarbiyaviy muammolarni hal qilish yoki "bolalarining hayotini, faoliyatlarini, munosabatlarini, muloqotini, faoliyatini rag'batlantiruvchi va xulq-atvorni tartibga solishga ko'maklashadigan kattalar va bolalar o'rtasidagi pedagogik jihatdan mos keladigan o'zaro hamkorlikning ijtimoiy usullari etib belgilash mumkin. Bolani vatanparvarlik hisi bilan tarbiyalashning individual shakllari orasida mustaqil tadbiqotlar (uy vazifasi) aloxida ajralib turadi. Masalan, bolalarga yozuvchilarining Vatan tarixidagi jangarilar, ekspluatatorlar, jasoratlari va shon-sharaflar haqidagi asar epizodlarini o'qish qiziqarli hisoblanadi.

Adabiyotlar o`quvchilarni Vatanni himoya qilishning ming yillik an'analarini haqida o`ylashga majbur etadi, Vatanning mustaqilligi uchun tarixiy janglar qahramonlari bilan faxrlanish hissini uyg`otadi. Xalqning buyukligini ko`rsatadi, Vatanni himoya qilishga chorlaydi, dushmaniga nafrat uyg`otadi. Adabiyot o`quvchilarga Vatan uchun kurash ahamiyatini ochib beradi, yoshlarga butun yuragi bilan bu kurash chiroyi va oliyjanobligini ochib beradi. Malika To`maris, cho`pon Shiroq, Spitamen, Muqanna, A.Temur, Ulug`bek, Bobur, S.Raximov, L.Alieva, K.Suyunova obrazlari o`quvchi yoshlar uchun ma`naviy namuna hisoblanadi. Xalqning o`z mustaqilligi uchun kurashiga bag`ishlangan adabiy asarlar o`quvchilarga urushlarning yuzaga kelishi sabablarini tushunish, O`zbekiston xalqlarining o`z mustaqilligi uchun qahramonona jasoratlari ma`naviy sabablarining chuqr asoslarini tushunishga yordam beradi. Urush haqidagi bizning asarlarimiz qahramonlar ma`naviy dunyosini og`ir sinovlarda ochib beradi, o`quvchilar ongida Vatan va butun dunyoda tinchlik himoyachilari namunasini yaratib va o`rgatib qolishiga intiladi. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida yoshlarga tegishli bo`lgan qonunlar ham mavjud bo`lib, bu qonunlar yoshlarning vatan oldida bo`lgan burchini bajarishiga qaratilgan.

Quyidagilar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy vazifalari hisoblanadi:

1. yoshlarni milliy g`oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch yekanini chuqr singdirish;

2. qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo`lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo`lish tuyg`usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo`lgan ishonchni kuchaytirish;

3. milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma`nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O`zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch yekani haqidagi tushunchani hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko`nikmalarini mustahkamlash;

4. yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro`y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko`nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

5. har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy-texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga yega yoshlarni tarbiyalash;

6. O`zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo`lish — bu bugungi kun talabi yekanini hayotiy misollar va ta`sirchan vositalar orqali yoshlar ongiga singdirib boorish.

Vatanparvarlik tarbiyasining maqsadi - jamiyatda yuqori ijtimoiy faollik, fuqarolik javobgarligi, ma`naviyatni rivojlantirish, davlatni mustahkamlash, uning manfaatlarini va rivojlanishini ta'minlash. Maqsadga erishishda quyidagilarning rivojlanishi orqali vazifalar amalga oshiriladi: Fuqarolarni O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va jamoaviy hayot normalariga hurmat ruhida tarbiyalashdir. Insonning konstitutsiyaviy huquqlari va uning burchlari amalga oshirilishini ta'minlash uchun sharoit yaratish ham shu jumladandir. O`zbekiston Respublikasining ramzlari hisoblangan - gerb, bayroq, madhiya va Vatanning tarixiy yodgorliklariga g'urur, chuqur hurmat va ehtirom hissini shakllantirish muhim axamiyatga ega.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ta'lim muassasalarining o`rni nihoyatda katta bo`lib, ta'lim muassasasida ta'lim berish bilan birga tarbiyaviy ishlar birgalikda amalga oshiriladi. Ta'lim muassasalari talabalarining harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ta'lim muassasasida o'tkaziladigan ma‘naviyma‘rifiy va tarbiyaviy tadbirlar, harbiy xizmatchilar bilan hamkorlikda tashkil etiladigan tadbirlar orqali olib boriladi. Auditoriyadan tashqari ishlarda o`quvchilarda vatanparvarlik tuyg`ularini shakllantirishda ularning olgan bilimlarini amaliy hayotga tadbiq qilishlari uchun aniq maqsad asosida munozaralar o`tkazish juda ahamiyatlidir. Darsmashg`ulotlari vaqtida o`quvchi shu mavzu bo`yicha o`z ilganlarini erkin xolda gapirib berishi, munozara o`quvchiga murakkab masalalarni tushunib olishga, o`z tushunchasini o`rtoqlari oldida namoyish qilishga va bilim doirasining kengayishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi, 11.01.2018-yil.

1. G Habibova, Educating Youth In The Spirit of Military Patriotism Activities Outside The Classroom//Scientific Progress. 2021. 1871-b.
2. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 08.12,1992-yil.
3. Astanova S., GulDU o`qituvchisi, —Vatanparvarlik tuyg`usini shakllantirish omillari‖, Referat. www.arxiv.uz
4. Sh Jo`rayev, Yoshlarni Harbiy Vatanparvarlik Ruhida Tarbiyalashning Ustuvor Vazifalari. // Academic Research In Educational Sciences. 2020. 1083-b
5. Azimova N. E. et al. Youth Is Moving Force of Civil Society //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1